



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



EKMA KASHNICH (*CORIANDRUM SATIVUM L.*) O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

Ismailova Nozima

Guliston davlat universiteti, tayanch doktorant

Abdumo'minova Hilola

Guliston davlat universiteti, 4-bosqich talabasi

hilolaismatova123@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ekma kashnich (*Coriandrum sativum L.*) o'simligining morfologik va biologik xususiyatlari, tarqalish hududlari hamda dorivor ahamiyati yoritilgan. O'simlikning meva va urug'lari asosiy dorivor xomashyo sifatida o'rganilib, uning tarkibidagi efir moylari va biologik faol moddalarning farmakologik xususiyatlari tahlil qilingan. Ekma kashnichning ovqat hazm qilish tizimini yaxshilash, yallig'lanishga qarshi, antiseptik hamda tinchlantiruvchi ta'siri ilmiy manbalar asosida bayon etilgan. Shuningdek, kashnich urug'ining xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotda qo'llanilishi, turli damlama va efir moyi shaklida foydalanish usullari ko'rib chiqilgan. Maqolada ekma kashnichni navbatlab ekish orqali hosildorlikni oshirish imkoniyatlari ham qisqacha yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ekma kashnich, *Coriandrum sativum L.*, efir moyi, linalool, flavonoid, antiseptik, yallig'lanishga qarshi, hazm qilish tizimi, xalq tabobati, dorivor xomashyo.*

Аннотация: *В данной статье рассмотрены морфологические и биологические особенности растения кориандр посевной (*Coriandrum sativum L.*), его ареал распространения и лекарственное значение. Основное внимание уделено плодам и семенам растения как важному лекарственному сырью, а также химическому составу, в частности эфирным маслам и биологически активным веществам. На основе научных источников проанализированы фармакологические свойства кориандра, включая улучшение пищеварения, противовоспалительное, антисептическое и успокаивающее действие. Кроме того, описаны направления применения семян кориандра в народной медицине и современной фармакологии, а также способы приготовления настоев и эфирных масел. В статье также кратко освещены агротехнические особенности выращивания кориандра и влияние севооборота на повышение урожайности.*

Ключевые слова: *Кориандр посевной, *Coriandrum sativum L.*, эфирное масло, линалоол, флавоноид, антисептик, противовоспалительное действие, пищеварительная система, народная медицина, лекарственное сырьё.*

Abstract. *This article discusses the morphological and biological characteristics of coriander (*Coriandrum sativum L.*), its distribution areas, and its medicinal significance. Special attention is given to the fruits and seeds as the main medicinal raw material, as well as to the chemical composition of the plant, particularly essential oils and biologically*



active compounds. Based on scientific sources, the pharmacological properties of coriander seeds are analyzed, including their digestive-supporting, anti-inflammatory, antiseptic, and calming effects. In addition, the directions of coriander use in folk medicine and modern pharmacology are described, along with methods of preparing infusions and essential oils. The article also briefly highlights the cultivation features of coriander and the effect of crop rotation on improving yield.

Keywords: *Coriander, Coriandrum sativum L., essential oil, linalool, flavonoid, antiseptic, anti-inflammatory, digestive system, folk medicine, medicinal raw material.*

Kirish. Dorivor o'simliklar insoniyat tomonidan qadim zamonlardan buyon xalq tabobati hamda ilmiy tibbiyotda keng qo'llanib kelinmoqda. Ayniqsa, tarkibida biologik faol moddalarga boy bo'lgan o'simliklarning turli kasalliklarni davolash va oldini olishdagi ahamiyati yildan-yilga ortib bormoqda. Shu sababli dorivor o'simliklarni farmakognoziya va farmakologiya nuqtai nazaridan ilmiy asosda o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [1,2,6,7,9,10].

Ekma kashnich (*Coriandrum sativum* L.) — soyabonguldoshlar (*Apiaceae*) oilasiga mansub bir yillik o'tsimon o'simlik bo'lib, dorivor va oziq-ovqat ahamiyatiga ega ekinlardan sanaladi [1,2]. Ushbu o'simlikning bo'yi odatda 30–70 sm ga yetadi. Poyasi silindrsimon, ichi kovak, yuqori qismi shoxlangan bo'lib, barglari ketma-ket joylashadi. Gullari mayda, murakkab soyabon gul to'plamiga yig'ilgan, mevasi esa yumaloq, qo'ng'ir yoki sarg'ish-kulrang tusli qo'shaloq doncha shaklida bo'ladi [1,2]. Ekma kashnich iyun-avgust oylarida gullab, avgust-sentabr oylarida mevasi pishib yetiladi [1,2].

Farmakognoziyada ekma kashnichning mevalari va efir moyi “Fructus et oleum coriandre” nomi bilan dorivor xomashyo sifatida qo'llanadi [1,7,9]. Kashnich efir moyi tarkibida linalool, geraniol, borneol hamda turli aldegid va terpen birikmalari uchraydi. Efir moyining farmatsevtik standartlariga ko'ra, uning tarkibidagi linalool miqdori 65% dan kam bo'lmasligi lozim [3,8]. Ushbu moddalar o'simlikning antiseptik va xushbo'y hid beruvchi xususiyatini ta'minlaydi hamda uni farmatsevtika va parfumeriya sanoatida keng qo'llash imkonini beradi [1,3,11].

Ekma kashnich mevasi ishtaha ochuvchi, ovqat hazm qilishni yaxshilovchi hamda o't haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi. Shuningdek, u bavoasil kasalligida hamda yaralarni davolashda samarali hisoblanadi [1,2,7]. Kashnich urug'lari xalq tabobatida qadimdan dorivor vosita sifatida ishlatilgan bo'lib, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ham uning antiseptik, antifungal, yallig'lanishga qarshi va tinchlantiruvchi xususiyatlarini tasdiqlamoqda [4,9,10].

Bundan tashqari, ekma kashnichni yetishtirishda agronomik tadqiqotlar ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, navbatlab ekish (almashlab ekish) usullarini qo'llash o'simlikning o'sishi va hosildorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, doimiy ekilgan maydonlarga nisbatan urug' hosildorligini 14–15% gacha oshirishi mumkinligi ilmiy izlanishlarda qayd etilgan [5,12]. Bu esa ekma kashnichni sanoat plantatsiyalarida samarali yetishtirish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Shu sababli ekma kashnich (*Coriandrum sativum* L.) o‘simligini dorivorlik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi hamda amaliy qo‘llanilishi bo‘yicha ilmiy o‘rganish dolzarb bo‘lib, ushbu maqolada mazkur o‘simlikning farmakognozik va farmakologik ahamiyati yoritiladi.

Ekma kashnich dorivor o‘simlik sifatida qadimdan Sharq tabobatida keng qo‘llanilgan bo‘lib, uning barglari va urug‘lari oziq-ovqat sanoatida ziravor sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o‘simlikning urug‘i (mevasi) tarkibida biologik faol moddalarning ko‘pligi sababli dorivorlik xususiyatlari yuqori baholanadi [4,7,9,10]. Kashnich mevalari farmakognoziyada “Fructus coriandre” nomi bilan dorivor xomashyo sifatida ishlatiladi hamda undan efir moyi olinadi [1,7,9].

Ekma kashnichning kimyoviy tarkibi. Ekma kashnichning dorivorlik xususiyati uning tarkibidagi efir moylari va boshqa biologik faol moddalarga bog‘liqdir. Farmakognozik manbalarga ko‘ra, kashnich mevasida efir moyi mavjud bo‘lib, davlat farmakopeyasi talablariga asosan mevada efir moyi miqdori 0,5% dan kam bo‘lmasligi lozim [3,8]. Kashnich efir moyi rangsiz yoki och sarg‘ish tusli bo‘lib, yoqimli hid va o‘ziga xos ta‘mga ega. Efir moyining asosiy qismini 60–80% linalool tashkil etadi, shuningdek, 5% geraniol hamda oz miqdorda borneol, turli aldegidlar va terpen birikmalari uchraydi [3,8,11].

Bundan tashqari, kashnich efir moyi tarkibida geraniol va sitronellol kabi birlamchi spirtlar ham mavjud bo‘lib, ular o‘simlikka xushbo‘y hid beruvchi asosiy moddalardan hisoblanadi. Linalool spirti marvaridgul va lavanda hidini eslatuvchi aroma hosil qilsa, sitral aldegid esa limon hidini beradi [1,11]. Shu sababli kashnich efir moyi tibbiyotda cheklangan miqdorda ishlatilgan bo‘lsa-da, parfumeriya sanoatida keng qo‘llanadi [1,11].

Farmakologik ta‘siri va dorivorlik xususiyatlari. Ekma kashnich mevasi va urug‘i farmakologik jihatdan bir necha yo‘nalishda foydali hisoblanadi. Dorivor o‘simliklar sistematikasi bo‘yicha ma‘lumotlarda kashnich mevasi ishtaha ochuvchi, o‘t haydovchi hamda ovqat hazm qilishni yaxshilovchi vosita sifatida ishlatilishi qayd etilgan [2,6]. Shuningdek, u gemmoroy (bavosil) kasalligida hamda yaralarni davolashda qo‘llanilishi mumkinligi ko‘rsatilgan [2,6].

Farmakognoziya ekma kashnichning ovqat hazm qilish tizimiga ijobiy ta‘siri, me‘da faoliyatini yaxshilashi va o‘t haydovchi xususiyati alohida ta‘kidlanadi [3,7,9].



1-rasm. Ekma kashnich urug' i efir moyining asosiy tarkibiy qismlari.

Kashnichning efir moyi esa antiseptik, og'riq qoldiruvchi, o't haydovchi va bavirusga qarshi dori sifatida qo'llanilishi mumkinligi bayon etilgan [3,7]. Bundan tashqari, kashnich preparatlari farmatsevtikada ichiladigan dorilar ta'mini yaxshilashda ham ishlatiladi [7,9].

Zamonaviy ilmiy maqolalarda ekma kashnich urug'ining antiseptik va antifungal xususiyatlari kuchli ekanligi ta'kidlangan. Xususan, urug'dan olingan efir moylari *Candida* kabi zamburug'larga qarshi ta'sir ko'rsatishi, bu esa uni tabiiy antiseptik va antifungal vosita sifatida ishlatishga imkon berishi qayd etilgan [4,10]. Shuningdek, urug' ekstrakti og'iz bo'shlig'i gigiyenasida ham foydali bo'lib, og'izdagi yomon hidni ketkazish, milklarni mustahkamlash va og'iz yaralarini davolashga yordam berishi mumkin [4,10].

Bundan tashqari, ilmiy manbalarda kashnich urug'ining organizmdan og'ir metallarni chiqarishda yordam berishi, ya'ni detoksifikatsion ta'sirga ega ekanligi ham ko'rsatilgan



[4,10]. Bu xususiyat kashnich urug'ini sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlovchi tabiiy vosita sifatida ajratib turadi.

Xalq tabobati va amaliy tibbiyotdagi qo'llanilishi. Xalq tabobatida ekma kashnich urug'i oshqozon-ichak faoliyatini yaxshilash, ich ketish, shish (meteorizm) holatlarida, asab tizimini tinchlantirishda hamda umumiy quvvat beruvchi vosita sifatida ishlatiladi [4,10]. Shuningdek, yallig'lanishga qarshi va tinchlantiruvchi xususiyati sababli ayollar salomatligi bilan bog'liq ayrim muammolarda ham tavsiya etilganligi qayd etiladi [4].

Ilmiy tibbiyotda esa kashnich mevasi va efir moyi asosan hazm tizimi kasalliklarida, o't haydovchi yig'ma choylar tarkibida hamda antiseptik vosita sifatida ishlatiladi [3,7,9]. Kashnich mevalari va efir moyi oziq-ovqat sanoatida hamda parfumeriyada ham qo'llanilishi bilan ahamiyatlidir [3,9,11].

Dorivor preparatlari. Farmakognoziya manbalariga ko'ra, ekma kashnichdan quyidagi preparatlar tayyorlanadi: damlama (nastoy), kukun holiday mahsulot, spirtli suv – **Aqua Coriandri spirituosa**. Mevasi me'da kasalliklarida hamda o't haydovchi yig'ma-choylar tarkibida ishlatiladi [3,7,9].

Ekma kashnichni yetishtirish va hosildorlikka ta'siri. Dorivor o'simlik sifatida ekma kashnichning sanoat miqyosida yetishtirilishi muhim ahamiyatga ega. Qishloq xo'jaligi tajribalarida navbatlab ekish (almashlab ekish) usullari o'simlikning o'sishi va hosildorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan [5,12]. Tadqiqotlarda doimiy ravishda bir xil maydonga ekilgan ekma kashnich urug' hosildorligi o'rtacha 600–612 kg/ga ni tashkil etgan bo'lsa, navbatlab ekilgan maydonlarda bu ko'rsatkich 6–7% ga oshgani qayd etilgan [5,12]. Nisbatan yuqori natijalar esa doimiy navbatlab ekish sharoitida kuzatilib, hosildorlik 14–15% gacha ortganligi aniqlangan [5,12]. Demak, navbatlab ekish usulini qo'llash ekma kashnich plantatsiyalarida hosildorlikni oshirish, tuproq unumdorligini saqlash va bioxilma-xillikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi [5,12].

XULOSA

Ekma kashnich (*Coriandrum sativum* L.) soyabonguldoshlar (Apiaceae) oilasiga mansub bo'lib, dorivor va oziq-ovqat ahamiyatiga ega muhim o'simliklardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar va ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ekma kashnichning asosiy dorivor xomashyosi uning mevasi va urug'i bo'lib, ular tarkibida efir moylari hamda biologik faol moddalarning mavjudligi o'simlikning dorivorlik xususiyatlarini belgilaydi. Kashnich efir moyi tarkibida linalool, geraniol, borneol hamda turli terpen va aldegid birikmalari uchrab, o'simlikning antiseptik, yallig'lanishga qarshi va ovqat hazm qilish tizimini yaxshilovchi ta'sirini ta'minlaydi. Shuningdek, ekma kashnich mevasi va urug'i xalq tabobatida ishtaha ochuvchi, o't haydovchi, tinchlantiruvchi hamda zamburug'larga qarshi vosita sifatida qo'llanilib, zamonaviy tibbiyotda ham uning farmakologik ahamiyati tasdiqlanmoqda. Bundan tashqari, agronomik tadqiqotlar ekma kashnichni navbatlab ekish usulini qo'llash hosildorlikni oshirish va plantatsiyalar samaradorligini yaxshilashga yordam berishini ko'rsatadi. Demak, ekma kashnich dorivor va sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan istiqbolli o'simlik sifatida tibbiyot, farmatsevtika va qishloq xo'jaligida keng qo'llanilishi mumkin.





ADABIYOTLAR

1. Пастушенков Л. В. Лекарственные растения и их использование. – Ленинград: Медицина, 1990. – 320 с.
2. Dorivor o‘simliklar sistematikasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2020. – 180 b. – B. 85–87.
3. Sanoev Z. I., Turdiyev P. Q., Alimova N. X., Berdimurodov B. P. Farmakognoziya: darslik. – Toshkent: “Yetakchi nashriyoti”, 2023. – 416 b. – B. 144–145.
4. Kashnich urug‘ining shifobaxsh xususiyatlari. – Toshkent, 2023. – 6 b. – B. 1–6.
5. Ekma kashnichni yetishtirishda navbatlab ekishning ahamiyati. – Toshkent, 2022. – 8 b. – B. 1–8.
6. Холодов Л. Е., Яковлев Г. П. Лекарственные растения: учебное пособие. – Москва: Высшая школа, 2001. – 512 с.
7. Муравьева Д. А. Фармакогнозия: учебник. – 4-е изд., перераб. и доп. – Москва: Медицина, 2002. – 656 с.
8. Государственная фармакопея Российской Федерации. – XIV изд. – Т. 2. – Москва: Министерство здравоохранения РФ, 2018. – 4000 с.
9. Trease G. E., Evans W. C. Pharmacognosy. – 15th ed. – London: Saunders Elsevier, 2002. – 585 p.
10. Duke J. A. Handbook of Medicinal Herbs. – 2nd ed. – Boca Raton: CRC Press, 2002. – 896 p.
11. Baser K. H. C., Buchbauer G. (eds.) Handbook of Essential Oils: Science, Technology, and Applications. – Boca Raton: CRC Press, 2010. – 994 p.
12. Ляховкин А. Г. Эфиромасличные культуры. – Москва: Колос, 2005. – 320 с.